




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

3 (77) 2025

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

3 (77)

2025

март

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.02.2025, Accepted: 09.03.2025, Published: 14.03.2025

UQK 664.1

BOLALARDA OQSIL-ENERGETIK YETISHMOVCHILIK (DISTROFIYA): SABABLARI, TURLARI VA OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Bafojev Azizbek Husen o'g'li <https://orcid.org/0009-0007-1345-1395>

E-mail: azizbek_bafojev@bsmi.uz

Abu ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot instituti O'zbekiston, Buxoro sh.,
A.Navoiy ko'chasi. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Resume*

Ushbu maqolada bolalarda oqsil-energetik yetishmovchilik (distrofiya) kasalligining sabablari, turlari va oldini olish chora-tadbirlari tahlil qilinadi. Distrofiyaning asosiy shakllari – giprotrofiya, paratrofiya va gipostatura – haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, kasallikning oldini olish va davolash tamoyillari ko'rib chiqilgan. Maqolada sog'lom ovqatlanish, gigiyena va muntazam tibbiy ko'rik muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Oqsil-energetik yetishmovchilik, distrofiya, giprotrofiya, paratrofiya, gipostatura, bola rivojlanishi, bolalar ovqatlanishi, immunitet, suvsizlanish, intellektual rivojlanish.

БЕЛКОВО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ (ДИСТРОФИИ) У ДЕТЕЙ: ПРИЧИНЫ, ВИДЫ И МЕРЫ ПРОФИЛАКТИКИ

Бафоев Азизбек Хусенович <https://orcid.org/0009-0007-1345-1395>

E-mail: azizbek_bafojev@bsmi.uz

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,
г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Резюме*

В данной статье рассматриваются причины, виды и профилактика белково-энергетической недостаточности (дистрофии) у детей. Описаны основные формы дистрофии – гипотрофия, паратрофия и гипостатура. Также обсуждаются методы профилактики и лечения заболевания.

Ключевые слова: Белково-энергетическая недостаточность, дистрофия, гипотрофия, паратрофия, гипостатура, развитие ребенка, детское питание, иммунитет.

PROTEIN-ENERGY DEFICIENCY (DYSTROPHY) IN CHILDREN: CAUSES, TYPES AND PREVENTIVE MEASURES

Bafojev Azizbek Husen o'g'li <https://orcid.org/0009-0007-1345-1395>

E-mail: azizbek_bafojev@bsmi.uz

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi. 1
Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Resume*

This article discusses the causes, types and prevention of protein-energy malnutrition (PEM) in children. The main forms of PEM are described - hypotrophy, paratrophy and hypostatura. The article also discusses methods of prevention and treatment of the disease.

Keywords: Protein-energy malnutrition, PEM, hypotrophy, paratrophy, hypostatura, child development, infant feeding, immunity.

Dolzarliligi

Distrofiya (oqsil-energetik yetishmovchilik) – bolaning to‘g‘ri jismoniy rivojlanishining buzilishiga olib keluvchi, oziqlanish va to‘qima trofikasining surunkali buzilishi bilan tavsiflanadigan kasallikdir. Ayniqsa, iqtisodiy qiyinchilik yillarida ushbu holat turli yoshdagi bolalarda kuzatilishi mumkin, biroq asosan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar ko‘proq ta‘sir lanadi. Kasallik moddalar almashinuvi jarayonining buzilishi, immunitetning pasayishi, jismoniy, ruhiy-motor va intellektual rivojlanishning orqada qolishi bilan kechadi.

Distrofiyaning turlari

Distrofiya uch asosiy turga bo‘linadi:

- **Gipotrofiya** – tana vaznining bo‘yiga nisbatan tanqisligi.
- **Paratrofiya** – tana vaznining me‘yoridan ortiq bo‘lishi (semizlik).
- **Gipostatura** – tana vazni va bo‘yi bir xilda yosh me‘yoridan orqada qolishi.

Bundan tashqari, distrofiyalar sababiga ko‘ra quyidagilarga ajratiladi:

• **Birlamchi (alimantar, tug‘ma)** – yetarli ovqatlanmaslik yoki ona qornida rivojlanishdagi muammolar bilan bog‘liq.

• **Ikkilamchi (orttirilgan)** – boshqa kasalliklar, infeksiyalar, metabolik buzilishlar fonida rivojlanadigan holatlar.

Gipotrofiya: rivojlanish sabablari

Gipotrofiya bola tug‘ilishidan oldin (prenatal) yoki tug‘ilgandan keyin (postnatal) yuzaga chiqishi mumkin.

Prenatal gipotrofiya sabablari:

• Homilaning to‘g‘ri rivojlanishini buzadigan noqulay omillar (yomon ekologiya, stress, noto‘g‘ri ovqatlanish).

- Homiladorlikning erta yoki kech yoshda sodir bo‘lishi.
- Homiladorlik vaqtida yuqumli va surunkali kasalliklar.
- Yo‘ldosh patologiyasi va qon aylanishining buzilishi.

Postnatal gipotrofiya sabablari:

- Oqsil va energiya yetishmovchiligi (yetarli ovqat iste‘mol qilmaslik).
- Ichak infeksiyalari va surunkali kasalliklar.
- Immunitetning pasayishi, genetik kasalliklar va fermentopatiyalar.

Distrofiyaning patogenezi

Prenatal distrofiyada homila ichi gipoksiyasi va yo‘ldosh qon aylanishining buzilishi muhim rol o‘ynaydi. Postnatal gipotrofiya esa oziqlanish buzilishi va bosh miya faoliyatining susayishi natijasida yuzaga keladi.

Distrofiyaning klinik belgilari

Distrofiyaning klinik ko‘rinishi uning shakli va og‘irlik darajasiga bog‘liq. Prenatal distrofiyada bola tug‘ilganda tana vazni kam yoki normal bo‘lishi mumkin, lekin keyinchalik rivojlanishdan orqada qolish kuzatiladi.

Gipotrofiya uch darajaga bo‘linadi:

1. I-daraja (yengil shakl)

- Bola umumiy ahvoli qoniqarli, lekin ishtahasi pasaygan.
- Teri rangi oqimtir, elastikligi biroz pasaygan.
- Tana vazni yosh normasidan 10-20% kam.

2. II-daraja (o‘rta og‘ir shakl)

- Bola lanj, harakatsiz va ishtahasi sezilarli darajada pasaygan.
- Terisi quruq, mushaklar zaiflashgan.
- Tana vazni 20-30% kam.

3. III-daraja (og‘ir shakl, marazm)

- Bola rivojlanishdan chuqur orqada qolgan, suyaklari ko‘rinib turadi.
- Terisi yupqa, quruq, burmalangan.
- Tana vazni 30% va undan ko‘proq kam.
- Ichki a‘zolar faoliyatining buzilishi, suvsizlanish, nafas va yurak faoliyatining zaiflashishi kuzatiladi.

Paratrofiya

Paratrofiya – noto‘g‘ri ovqatlantirish (ortiqcha uglevod va yog‘ iste‘moli) natijasida yuzaga keladigan semizlik turi. Bolalar kam harakat qilsa, ortiqcha oziqlantirilsa yoki noto‘g‘ri ovqat tanlansa, paratrofiya rivojlanadi. Uning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

- Tana vaznining ortiqcha bo‘lishi.
- Mushak zaifligi, teri qalinlashishi.
- Immunitet pasayishi, shamollash kasalliklariga moyillik.

Gipostatura

Gipostatura – bolaning o‘shishdan orqada qolishi bilan tavsiflanadi. Gipostatura giprotrofiyaning uzoq davom etishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunda:

- Bola bo‘yi va vazni me‘yordan sezilarli orqada qoladi.
- Intellektual rivojlanish ham sekinlashadi.
- Immunitet susayib, tez-tez kasal bo‘lish holatlari kuzatiladi.

Xulosa

Oqsil-energetik yetishmovchilik bolalar rivojlanishi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. U bolaning jismoniy, ruhiy va intellektual rivojlanishining orqada qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun kasallikni erta aniqlash, to‘g‘ri davolash va oldini olish choralari muhim ahamiyat kasb etadi. Sog‘lom ovqatlanish, gigiyena qoidalariga rioya qilish va bolani muntazam tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish distrofiyaning oldini olishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бафоев Азизбек Хусен ўғли. Озиқ-овқат хавфсизлиги ва гигиена: соғлом ҳаётнинг асоси // Новый день в медицине 2024;11(73):474-480
https://newdayworldmedicine.com/ru/new_day_medicine/11-73-2024
2. Serova E.V. K voprosu o prodovolstvennoy bezopasnosti. – <http://www.iet.ru/>.
3. Balabanov V.S., Borisenko E.N. Prodovolstvennaya bezopasnost': mezhdunarodnye i vnutrennie aspekty. – M.: Ekonomika, 2002; 22 s.
4. Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova O.A. i dr. Bezopasnost' Rossii. Razdel 2 / M.: Znanie, 2001; 101 s.
5. Anfinogentova A.A., Ermolaeva O.V., Kireeva N.A. i dr.; pod red. Anfinogentovoy A.A. Prodovolstvennaya bezopasnost' Rossii: problemy i perspektivy – Saratov: Izdatel'stvo Saratovskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta, 2004; 14 s.
6. Kudryashova A.A., Presnyakova O.P. Prodovolstvennaya bezopasnost': pokazateli, kriterii, kategorii i masshtaby. // Pishhevaya promyshlennost'. M.: 2007;8:18-21.
7. Kalambet A. O prodovolstvennoy bezopasnosti Rossii. - <http://www.armiavn.ru>.
8. Lenchevskiy I.Yu. O nekotorykh aspektakh prodovolstvennoy bezopasnosti // Zh. Dostizhenie nauki i tekhniki APK. M. 2003; 1:6-9.
9. Xatamova X. (2023). Oziq-ovqat savdosiga ixtisoslashgan korxonalarda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi. Journal of Research and Innovation, 2023;1(7):7-12. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/424>
10. Nabiyeva Nilufar Mutorovna. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va uning dolzarb masalalari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi 2023;8
https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/797
11. Rasulova Sharifa G‘aybullaevna. Oziq-ovqat sanoat korxonalari faoliyatini boshqarish hamda korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi 2023;9
https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/829

Qabul qilingan sana 20.02.2025